

## O'QUVCHILARDA GENDER TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI

**Norbosheva M. A**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida v.b.dotsenti, psixologiya f.b.f.d PhD.*

**Shoimova A. S**

*Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarda gender tolerantligining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, o'quvchilaridagi gender tolerantlikning tarkibiy qismlari, o'quvchilarda gender tolerantlikni shakllantirish gender identifikatsiyasida namoyon bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayoniga geymifikatsiyani joriy etishning ustunliklari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limni o'zlashtirishda gender xususiyatlarni shakllantirish omillari kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, gender, tolerantlik, tavofut, ruh, o'gil, qiz, o'quvchi, xususiyat, jihat, o'rganish, bilim, o'zlashtirish, informatsiya, olish, o'ziga xosliklar, jinsiy tafovut, shaxs, shakllanish, differensiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование гендерной толерантности у учащихся, компоненты гендерной толерантности у учащихся, формирование гендерной толерантности у учащихся проявляется в гендерной идентификации, преимущества внедрения геймификации в учебный процесс, образование начальных классов. школьников, освещены такие вопросы, как факторы формирования гендерных особенностей в изучении языка.

**Ключевые слова:** образование, пол, толерантность, тавафут, душа, мальчик, девочка, ученик, особенность, аспект, обучение, знания, приобретение, информация, приобретение, особенности, половое различие, личность, формирование, дифференциация.

**Annotation.** V dannyoy state rassmatrivayutsya factors influencing the formation of gender tolerance and flight, components of gender tolerance and flight, formation of gender tolerance and flight manifesting in gender identification, preimushchestva introduction of gamification in the educational process, formation of elementary classes. shkolnikov, osveshcheny takie voprosy, kak faktori formirovaniya gendernyx osobennostey v izuchenii language.

**Key words:** obrazovanie, pol, tolerantnost, tawafut, dusha, malchik, devochka, uchenik, osobennost, aspect, obuchenie, znaniya, priobretenie,

informatsiya, priobretenie, osobennosti, polovoe razlichie, lichnost, formirovanie, differentiation.

Bugungi texnologiyalar asrida, mustaqil fikrga ega va vatan manfaatini himoya qiladigan barkamol avlodni tarbiyalash har qachongidan ham muhim masala hisoblanadi chunki diniy to'qnashuvlarni yuzaga kelishi millatni botqoqlikka yetaklaydi hamda davlatni larzaga soladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan vediosektor yig'ilishida bugungi tahlikali davrda yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga e'tibor va ma'suliyat masalalari bo'yicha ziyolilar oldiga aniq vazifalar qo'yildi. Yosh avlodni diniy bag'rikenglik, vatanparvarlik, umuminsoniy an'analar, qadriyatlardan keng va umumiy foydalanish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning asosiy maqsadidir. Tolerantlik - bag'rikenglik, o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, histuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish qisqa qilib aytganda o'zga insonni hurmat qilishdir. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar, davlatlar namoyon qilishi mumkin shuning uchun ham aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik qobiliyatini yuksaltirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni tashkil etishda ya'ni o'quvchilarni tolerantlik ruhida tarbiyalashda o'quv qo'llanmalar va o'qituvchining o'rni beqiyosdir chunki bu tushuncha orqali o'quvchilar o'zaro bir-birini hurmat qilish, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradilar.

Bizga ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi xotira mexanik xotira hisoblanib, ular biron bir ma'lumotni va kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlarni yoki kichik iboralarni yod olish juda oson lekin ma'nosini tubdan anglab yetish va tushunish ularda qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun bag'rikenglik tushunchasini amalda ertaklar va qisqa hikoyalarni sahnalashtirish orqali tushuntirishimiz mumkin. Aynan tolerantlik tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga chuqur tushuntirilishi va o'rgatilishi zarur zero millat - yoshlarning qo'lida. Tolerant o'quvchini tarbiyalash uchun birinchi navbatda uning dunyoqarashini rivojlantirish zarur. Umumta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda odobnoma, o'qish va boshqa shu kabi darslar mobaynida tolerantlikka oid dastlabki tushunchalarni o'rganmoqdalar. So'ngi yillarda jamiyatda, iqtisodiyotda va ta'lim sohasida tolerantlik tushunchasidan keng foydalanilmoqda, bundan ko'rinib turibdiki, bu tushunchani har bir boshlang'ich sinf o'quvchilariga chuqur singdirish va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash zarur. Birinchi navbatda o'qituvchining tolerantligi o'quvchilarda ham bu tuyg'uning shakllanishiga turtki

bo'ladi. Xorij asarlaridan namunalar, parchalar o'qib berish orqali o'quvchilarda o'zga din va madaniyat vakillariga nisbatan hurmat muhiti yaratiladi. Sinf yoki maktabda tolerantlik muhitini yaratish uchun turli xil o'yinlardan foydalanish yuqori darajada foyda keltirishi mumkin.


O'quvchilarda gender tolerantligining shakllanishiga mazkur omillar inobatga olindi:

- "ota-onalar o'rtasidagi gender munosabatlari;
- O'quvchilar o'rtasidagi gender tolerantlikga oid suhbatlar;
- tengdoshlar bilan muloqotdagi gender muhiti;
- gender tolerantlik muhiti va muloqot;
- maktabgacha ta'lim yoshidagi o'quvchilar tengdoshlar o'rtasidagi gender munosabatlari;
- ommaviy axborot vositalarida taqdim etilayotgan materiallar (masalan, kitoblar, bosma materiallar, ertaklar, qo'shiqlar, aloqa kommunikativ vositalar)"<sup>1</sup>.

Maktab o'quvchilaridagi gender tolerantlikning tarkibiy qismlari aniqlashtirildi.(1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Maktab o'quvchilarida gender tolerantlikning tarkibiy qismlari

Komponentlar	Namoyon bo'lish shakllari
 <b>Kognitiv komponent</b>	o'quvchining o'zi va qarshi jins vakillarining tashqi ko'rinish, xulqatvor, funksional xususiyatlar haqidagi g'oyalar; xatti-harakatlar usullari va turli xil jins vakillari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida; o'quvchining o'zi va qarama-qarshi jins vakillarining shaxsiyatining mazmuni, o'z gender o'ziga xosliklari to'g'risida; turli jinsiy mansublikdagi tengdoshlarining kamchiliklariga javob berish usullari to'g'risida; o'quvchining o'z jinsiga mansub bo'lgan va qarama-qarshi jinsdagi tengdoshlariga e'tibor berishi, yordam berishi va hamdardlik ko'rsatishi; qarama-qarshi jinsdagi tengdoshining o'ziga tortuvchi, jozibali, yoqimli fazilatlar haqida; o'quvchini ma'lum bir jins vakili sifatida rivojlantirish istiqbollari to'g'risida.
<b>Kognitiv komponentni baholash mezonlari</b>	anglashning hajmi; chuqur anglash; idrok etishda maqbul stereotiplarning yetishmasligi; axloqiy tanlov holatlarini baholashda variativlikning yo'qligi
<b>Hissiy komponent</b>	empatiya, hamdardlik, o'quvchining o'z jinsiga mansub va qarshi jinsdagi tengdoshlariga yordam berish istagi; turli jinsdagi insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir aks etgan vaziyatlariga qiziqish; qarama-qarshi jinsdagi tengdoshi bilan o'zaro qiziqishlari hamda qarshi jins vakiliga ehtiyoj sezish.

<sup>1</sup>Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. P.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2002. – 276 b. /O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. BuxDU.

<b>Hissiy komponentni baholash mezonlari</b>	barqarorlik; zo‘ravonlik; variativliklikning yetishmasligi; o‘quvchida aks etayotgan hissiyotlarning inson ruhiy va gender holatiga mosligini farqlash; ijobiy va salbiy tanlov nisbati; umumiy va o‘zaro tanlovlarning mavjudligi.
<b>Xulq-atvor komponenti</b>	o‘quvchining qarama-qarshi jinsdagi tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarda (real vaziyatlarda) yordam ko‘rsatish, qo‘llabquvvatlash usullari; O‘quvchining qarshi jinsdagi tengdoshi bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida hissiy, xulq-atvor va nutqdagi reaksiyalari; O‘quvchining o‘zi va boshqa jinsdagi tengdoshining hissiy holatlariga nisbatan reaksiyasi
<b>Xulq-atvor komponentini baholash mezonlari</b>	mustaqillik; tashabbuskorlik; yetarlicha gender belgilariga bog‘liq vaziyatlarning yetarlicha mavjudligi; xatti-harakatlarning yo‘nalganligi (o‘ziga nisbatan, o‘zi bilan bir jinsdagi o‘quvchilarga, qarshi jinsga mansub o‘quvchilarga nisbatan yo‘nalgan, vaziyatga qarab yo‘nalgan); o‘zaro ta’sir xarakteristikasi (hissiy jihatdan ziddiyatli, ijobiy, loqaydlik).

Gender tolerantligi umumiy holda bir-birini to‘ldirib turuvshi omillar sifatida namoyon bo‘lsa-da, alohida ajratib ko‘rsatilgan holda mavhum tushunchalar kabi tushuniladi.

O‘quvchilarda gender tolerantlikni shakllantirish dastlab jinsiy tanish, ya’ni gender identifikatsiyasida namoyon bo‘ladi, mazkur jarayon ikki bosqichda, ya’ni, ichki va tashqi bosqichlarda yuz beradi:

1. “Tashqi bosqich tashqi atributlar orqali amalga oshiriladi. Bunda dastlabki jinsiy tanish kiyinish, kiyim uslubi, tanlanadigan o‘yinchoqlar, xulq-atvor kabilarda namoyon bo‘ladi.
2. Ichki bosqich esa, ko‘proq ma’naviy-ruhiy va hissiy doirada yuz beradi, bunda ayol va erkak o‘rtasidagi tub mazmunli farqqa ko‘ra: jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga bo‘lgan ichki munosabat, jamiyatdagi normalar hamda ta’sirlarga bo‘ysunishga kamroq moyillik kuzatiladi”<sup>2</sup>.

O‘quvchilarda gender tolerantlikni oila, ijtimoiy muhit, tengdoshlar davrasi kabi ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda, ta’lim-tarbiya berish muassasasi sifatida davlat va xususiy sheriklik va xususiy maktab ta’lim takilotlarida shakllantirish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarda tarbiya hamda ta’lim berish jarayonidagi geymifikatsiya – o‘yinni ta’limning turli sohalarida qo‘llash jarayoni bo‘lib, o‘yinni ham o‘qitish va tarbiyalash usuli sifatida, ham ta’lim shakli sifatida, ham yaxlit ta’lim jarayonini tashkil etish vositasi sifatida talqin qilish imkonini berishi e’tirof

<sup>2</sup> Abdusattorova O.A. Oila muhitida o‘smirlarda shakllanadigan jinsiy identifikatsiyaning gender xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi. disser. aftoref. – Toshkent; O‘zMU, 2007. – 22 b.

etilgan. Ta'lim-tarbiya jarayoniga geymifikatsiyani joriy etishning bir qancha ustunliklari mavjud:

1."O'quvchilarning gender tolerantlik haqida shakllantirilishi lozim bo'lgan mashg'ulotga chinakam qiziqishini ta'minlash;

2. O'quvchilarning eng "zerikarli" deb hisoblaydigan mashg'ulotlarda ham motivatsion yondashib ishtirok etishini rag'batlantirish;


3. Gender rollariga oid ma'lumotlarni yetkazish, gender tolerantligini shakllantirishda o'yin faoliyati ishtirokchilarining diqqat, tushunish, qiziqish, idrok, fikrlash kabi aqliy jarayonlari faollashtirish"<sup>3</sup>. Shuningdek, o'quvchilarning gender tolerantligini quyidagi omillar asosida shakllantirish lozim (1-rasmga qarang).

Maktab yoshdagi o'quvchi uchun o'yin-bu o'z manfaatlari, istaklari, afzalliklari, xayollarini ro'yobga chiqarish, har ikkala jins vakillari bilan o'zaro munosabatda bo'lish tajribasini to'plash, selektivlik, tanlov erkinligi, tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik ehtimoli mavjud bo'lgan maxsus dunyo. O'yin o'quvchiga turli xil ijtimoiy rollarni, munosabatlarni (o'yin va haqiqiy) sinab ko'rishga, ko'plab ijobiy his-tuyg'ularni, taassurotlarni, unutilmas, quvonchli daqiqalarni topishga imkon beradi.

**1-rasm.**

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limni o'zlashtirishda gender xususiyatlarni shakllantirish omillari**

<sup>3</sup>Haydarova H. Shaxsdagi jinsiy identifikatsiyaga ta'sir etuvchi omillar //Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. - № 4. – 103 – 107 b.



Rolli o'yinlar salbiy rol o'ynash stereotiplarini yengishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Masalan, "Doktor va bemor", "Ota va onangga sovg'a", "Kim bo'lmoqchiman?" kabi o'yinlar mazkur maqsad uchun aynan mos. Yuqorida keltirilgan har bir o'yinda jinsiy rollarni almashtirish mumkin. Masalan, "Doktor va bemor" o'yinida o'g'il maktab ta'lim yoshidagi o'quvchini shifokor sifatida biror "bemor" ro'li o'ynayotgan Maktab ta'lim yoshidagi o'quvchiga g'amxo'rlik qilishga undash mumkin, "Kim bo'lmoqchiman?" o'yinida esa, Maktab ta'lim yoshidagi qiz o'quvchilarga odatda hayotda yigitlar bajaradigan kasblardan biri (haydovchi, uchuvchi, quruvchi va hokazo)ni tanlab, yigit ro'li o'ynashga qiziqtirish mumkin.

Maktab yoshdagi o'quvchilar uchun ertak terapiya usullaridan ko'pincha ertak aytish, birgalikda ertak tuzish va rollarni o'zaro taqsimlagan holda ertaklarni sahnalashtirish qo'llanilishi haqida so'z yuritilgan. Bu jarayonda milliy, xalq, qardosh xalqlar ertaklari yoki biror mashhur muallifning hikoyalaridan, shuningdek, mavjud muammoning yechimi uchun maxsus kashf qilingan ertaklardan foydalanish mumkin. O'quvchilar uchun ertak terapiyasi gender tanish va tolerantlikka xos bo'lgan jihatlarni erkin va ixtiyoriy o'rganishi hamda ularda hayotiy vaziyatlar asosida vitagen tajriba to'plashda samara berishi o'rganilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Toshkent: "O'zbekiston",
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: "O'zbekiston". – B. 387.
3. Abdullayeva Q., Yusupov M. va b O'qish kitobi: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 176 b.
4. Abdusattorova O.A. Oila muhitida o'smirlarda shakllanadigan jinsiy identifikatsiyaning gender xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi. disser. aftoref. – Toshkent; O'zMU, 2007. – 22
5. Abdullayeva Q., Yusupov M., Mahmudova M., Rahmonbekova S. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2004-y. –176 b.
6. Айвазова С.Г. Что означает понятие «гендер»? //Деловая женщина. –М.: 1992. – 420
7. Клим А. Гендерные вопросы и стереотипы в учебниках общеобразовательных школ //VI Халқаро конференция материаллари. – Тошкент, 2003. -15-17 октябр.
8. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. P.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2002. – 276 b. /O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. BuxDU.
9. Кон И.С. Психология половых различий //Вопр.психол. М.: 1981. №2 .
10. Haydarova H. Shaxsdagi jinsiy identifikatsiyaga ta'sir etuvchi omillar //Xalq ta'limi. – Toshkent, 2004. - № 4. –103 – 107 b.